

**O‘ZBEKISTONDA NIKOH YOSHINING O‘ZGARISH TENDENSIYALARI:
SO‘NGGI YIGIRMA YILLIKDA NIKOH YOSHINING QIYOSIY PSIXOLOGIK
TAHLILI**

Panjiyeva Nargiza Botirovna

Termiz davlat universiteti

Psixologiya ta’lim yo’nalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda 2000-2025-yillar davomida birinchi nikohga kirish yoshidagi o‘zgarishlar qiyosiy tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonga ta’sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillar yoritiladi. Nikoh yoshining shakllanishiga ta’lim darajasi, iqtisodiy sharoit, oilaviy qadriyatlar, psixologik yetuklik va tug‘ilish tartibining ta’siri ilmiy manbalar hamda statistik ma’lumotlar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, oiladagi katta farzand maqomining shaxsning mas’uliyatlilik, mustaqillik va oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasiga ta’siri yoritilib, uning nikoh yoshiga ehtimoliy ta’siri muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari nikoh yoshining ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligini hamda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: nikoh yoshi, oila psixologiyasi, nikohga psixologik yetuklik, tug‘ilish tartibi, katta farzand, oilaviy qadriyatlar, oilaviy hayot, yosh oilalar, demografik jarayonlar.

Abstract. This article presents a comparative analysis of changes in the average age at first marriage in Uzbekistan between 2000 and 2025 and examines the social and psychological factors influencing this process. Based on scientific literature and statistical data, the study analyzes the impact of educational attainment, economic conditions, family values, psychological maturity, and birth order on the formation of marriage age. Particular attention is given to the psychological characteristics of firstborn children and their possible influence on responsibility, independence, readiness for family life, and the timing of marriage. The findings indicate that marriage age is a multifactorial socio-psychological phenomenon shaped by the interaction of demographic, economic, and psychological factors, highlighting the importance of improving programs that prepare young people for family life.

Keywords: marriage age, family psychology, psychological maturity, birth order, firstborn child, family values, family life, young families, demographic processes.

Аннотация. В статье проведён сравнительный анализ изменений среднего возраста вступления в первый брак в Узбекистане за период 2000-2025 годов, а также рассмотрены социальные и психологические факторы, влияющие на данный процесс.

На основе научной литературы и статистических данных проанализировано влияние уровня образования, экономических условий, семейных ценностей, психологической зрелости и порядка рождения на формирование брачного возраста. Особое внимание уделено психологическим особенностям старшего ребёнка в семье и их возможному влиянию на готовность к семейной жизни и возраст вступления в брак. Сделан вывод о том, что брачный возраст является результатом комплексного взаимодействия социальных и психологических факторов и требует дальнейших научных исследований.

Ключевые слова: брачный возраст, психология семьи, психологическая зрелость, порядок рождения, старший ребёнок, семейные ценности, семейная жизнь, молодые семьи, демографические процессы.

Kirish

Oila har qanday jamiyatning tayanchi, inson kamolotining birlamchi muhiti hamda ma'naviy qadriyatlarining davomiyligini ta'minlovchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Oila barqarorligi esa ko'p jihatdan nikohning qaysi yoshda tuzilishi va er-xotinning oilaviy hayotga qay darajada tayyorligi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli nikoh yoshidagi o'zgarishlarni o'rganish nafaqat demografiya, balki psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlari uchun ham dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Professor G. B. Shoumarov tahriri ostidagi "oila psixologiyasi" darsligida nikohga yetuklik tushunchasi o'z navbatida o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir deya ta'kidlanadi. Shu bilan bir qatorda nikohdan oldin bir qator omillar bo'linishini, ushbu omillar tufayli nikoh hodisasi vujudga kelishini tushuntiradi.

Nikoh oldi omillari:

1. Oilaviy hayotga yetukligi.
2. Oila qurish motivlari.
3. Nikohgacha tanishish muddati.
4. Nikoh qurish yoshi.
5. Nikoh qurish shartlari
6. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari.²⁰

Yuqorida keltirilgan tasniflardan hatto: "Oila Institutini Mustahkamlashning Ijtimoiy-Psixologik Muammolari" mavzusidagi Xalqaro Ilmiy-Amaliy Anjuman Materiallari to'plamida ham faydalanilgan. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi. Amaldagi

²⁰ Professor G. B. Shoumarov tahriri ostida "oila psixologiyasi" darsligi Toshkent-2010 121-b [1]

qonun hujjatlarida nikoh yoshi belgilab qo‘yilganligini konstitutsiyamizning bir nechta moddalarida ko‘rishimiz mumkin.

Masalaning e‘tiborli jihati shundaki nikoh motivlari kuchaygani sari yosh oilalar barpo etilaverarkan, holbuki ularning dunyo qarashlari, hayot tizmi bir-biriga to‘g‘ri kelmasdan qolsa vaziyat taqazosi ajrimlar sonining yanada oshib borishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqi belgilab qo‘yilgan. Oila kodeksi va boshqa qonun hujjatlari nikoh qurish shartlari va tartibi, oilaviy munosabatlarni tartibga solish, oilaviy ajrimlarning oldini olish nafaqat er-xotin, ayni chog‘da voyaga yetmagan farzandlarning ham huquq va manfaatlarini himoya qilish, shu bilan birgalikda, ajrimlar jarayonini tartibga solish va tomonlar manfaatlarini nazorat qilishda muhim ahamiyatga molik jihatlarda inobatga olingan. Mamlakat Prezidentining 2022-yil 7-martdagi 87-sonli “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab- quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida hamda 2022-yil 1-mart kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida oilaviy ajralishlarning oldini olish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas.²¹

O‘zbekistonda so‘nggi yigirma yil davomida nikoh qurish yoshi asta-sekin oshib, shu bilan birgalikda ayrim yillar kesimida yosh ko‘rsatgichi pasaygan holatlar ham uchramoqda. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ko‘pchilik yoshlar, ayniqsa qizlar, kollej yoki litseyini tamomlagach oila qurishni maqsad qilgan bo‘lsa, bugungi kunda oliy ta‘lim olish, kasb egallash, moddiy mustaqillikka erishish hamda shaxsiy rivojlanishga ko‘proq e‘tibor qaratmoqda. Natijada nikoh yoshi avvalgi davrlarga nisbatan sezilarli darajada kechikmoqda. Ushbu mazkur o‘zgarishlarni faqat iqtisodiy yoki ta‘lim omillari bilangina izohlab bo‘lmaydi. Zamonaviy psixologiya nikoh yoshiga shaxsning emotsional yetukligi, hayotiy maqsadlari, oilaviy qadriyatlarini, mas‘uliyat hissi hamda tug‘ilish tartibi ham ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi. Ayniqsa, oiladagi katta farzandlar ko‘pincha bolalikdan mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga odatlanadi. Ular ota-onaga yordam berish, ukalari va singillariga g‘amxo‘rlik qilish orqali oilaviy rollarni erta o‘zlashtiradi. Natijada bunday shaxslar ko‘plab hollarda oila qurishga ham nisbatan ertaroq tayyor bo‘lishi mumkin. Albatta, bu barcha oilalar uchun qat‘iy qoida emas, balki psixologik kuzatuvlarda uchraydigan tendensiyalardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda 2006–2015 hamda 2016–2025-yillar oralig‘idagi nikoh yoshidagi o‘zgarishlarni qiyosiy tahlil qilish, ushbu jarayonga ta‘sir etuvchi

²¹ <https://lex.uz/> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги 87-сонли "Оила ва хотин-қизларни тизimli қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. [https://lex.uz/docs/5899498\[2\]](https://lex.uz/docs/5899498[2])

ijtimoiy va psixologik omillarni ilmiy jihatdan asoslash hamda tug‘ilish tartibining, xususan katta farzand maqomining nikoh yoshiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Oiladagi katta farzandning nikoh yoshiga psixologik ta’siri

Tug‘ilish tartibi shaxs rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oiladagi katta farzand bolalik davridanoq ukalari va singillariga g‘amxo‘rlik qilish, ota-onaga yordam berish hamda oilaviy mas’uliyatni his qilishni o‘rganadi.

Mazkur tajribalar unda mas’uliyatlilik, mustaqillik, rejalashtirish va yetakchilik kabi sifatlarni shakllantiradi. Natijada katta farzandlarda oila boshqarish haqidagi tasavvurlar boshqalarga nisbatan ertaroq rivojlanishi mumkin.

Kuzatishlar va tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘plab o‘zbek oilalarida katta farzand ota-onaning ishonchini oqlash, ukalariga namuna bo‘lish hamda oilaviy an‘analarni davom ettirish maqsadida nikoh masalasiga jiddiyroq yondashadi. Shu sababli ular ko‘pincha oiladagi boshqa farzandlarga nisbatan ertaroq turmush qurishga intiladi. Biroq ushbu holatni barcha oilalarga tatbiq etish ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki nikoh yoshiga iqtisodiy sharoit, ta’lim darajasi, yashash hududi, shaxsiy qadriyatlar va individual psixologik xususiyatlar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Demak, tug‘ilish tartibi nikoh yoshiga ta’sir qiluvchi omillardan biri bo‘lsa-da, u yagona omil emas.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2025-yilda birinchi marta nikohdan o‘tayotgan erkaklarning o‘rtacha yoshi 25,6 yoshni, ayollarniki esa 21,4 yoshni tashkil etgan.²²

1-jadval

Mazkur ko‘rsatkichning o‘tgan yillardagi dinamikasi quyidagicha:

№	Yillar	Erkaklar	Ayollar
1	2000-yil	24,2 yosh	21,4 yosh
2	2005-yil	25 yosh	22,2 yosh
3	2010-yil	25,6 yosh	22,4 yosh
4	2015-yil	25,9 yosh	22,5 yosh
5	2020-yil	26,4 yosh	22,3 yosh
6	2024-yil	26,2 yosh	21,8 yosh
7	2025-yil	25,6 yosh	21,4 yosh

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari O‘zbekistonda birinchi nikohga kirish yoshida so‘nggi yigirma besh yil davomida muayyan o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rsatadi.

²² [https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/68635-zbekistonliklar-necha-joshda-oila-urishmo-da-2\[3\]](https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/68635-zbekistonliklar-necha-joshda-oila-urishmo-da-2[3])

Jumladan, 2000–2020-yillar oralig‘ida erkaklar va ayollarning birinchi nikohga kirish o‘rtacha yoshida bosqichma-bosqich o‘shish kuzatilgan. Mazkur holat oliy ta‘lim qamrovining kengayishi, yoshlarning kasbiy faoliyatga yo‘naltirilishi, iqtisodiy mustaqillikka intilishi hamda nikohga nisbatan psixologik tayyorgarlikning ortishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, 2020–2025-yillar davomida birinchi nikohga kirish o‘rtacha yoshining nisbatan pasayishi kuzatilgan. Ushbu tendensiya demografik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda yoshlarning hayotiy strategiyalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mazkur holatni chuqurroq o‘rganish qo‘shimcha empirik tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Nikoh yoshining shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unga ta‘lim darajasi, iqtisodiy sharoit, psixologik yetuklik, oilaviy qadriyatlar va tug‘ilish tartibi kabi omillar kompleks ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, oiladagi katta farzandlarda shakllanadigan mas‘uliyatlilik, mustaqillik va yetakchilik sifatleri ularning nikohga munosabati hamda oilaviy hayotga tayyorgarligiga muayyan darajada ta‘sir etishi mumkin. Biroq tug‘ilish tartibini nikoh yoshini belgilovchi asosiy omil sifatida baholash ilmiy jihatdan to‘liq asosli emas. O‘zbekistonda nikoh yoshidagi o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy-demografik rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonlarni psixologik nuqtai nazardan chuqur o‘rganish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimini takomillashtirish, oilalar barqarorligini mustahkamlash hamda sog‘lom oilaviy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, nikoh yoshining shakllanishi va uning vaqt mobaynida o‘zgarishi jamiyatning ijtimoiy-demografik rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. O‘tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari O‘zbekistonda birinchi nikohga kirish yoshiga ta‘lim darajasining oshishi, iqtisodiy sharoitlarning murakkablashuvi, kasbiy shakllanish jarayonining uzayishi hamda shaxsning psixologik yetukligiga bo‘lgan talablarning ortishi sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, nikoh yoshining shakllanishida oilaviy muhit va tarbiya omillari ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, tug‘ilish tartibi, ayniqsa oiladagi katta farzand maqomi shaxsda mas‘uliyatlilik, mustaqillik va ijtimoiy rollarni erta o‘zlashtirish kabi psixologik xususiyatlarning rivojlanishiga ta‘sir etishi mumkinligi qayd etildi. Bu esa ayrim hollarda nikohga nisbatan qaror qabul qilish jarayoniga ham bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq mazkur omilni nikoh yoshini belgilovchi yagona yoki asosiy determinant sifatida talqin etish ilmiy jihatdan yetarli asosga ega emas. Nikoh yoshidagi o‘zgarishlar jamiyatdagi modernizatsiya jarayonlari, qadriyatlar tizimidagi transformatsiya hamda yoshlar hayot strategiyasining o‘zgarishi bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar oila institutini mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlash hamda sog‘lom

oilaviy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги 87-сонли "Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5899498>[2]
2. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita yangiliklar /68635-zbekistonliklar-necha-joshda-oila-urishmo-da-2>[3]
3. Karimova V. M. Oila psixologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
4. G‘oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
5. Zufarova M. A. Yoshlar psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Professor G. B. Shoumarov tahriri ostida “oila psixologiyasi” darsligi Toshkent-2010 121-b [1]
7. lex.uz